

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb
ta'lifi bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari*

YEP OYNTB
Бирим № 344
7 • 08 • 23

Toshkent - 2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7»
08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		
1.	<i>60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....</i>	bet 4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarining qo'llanishi.....</i>	
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	
1.2.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.</i>	4
1.2.3.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4	Kvalifikatsiya.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi bakalavriat ta'lim yo'naliشining umumiy tasnifi

60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lida bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi malaka talablarining qo'llanilishi

Malaka talabi **60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi** bo'yicha bakalavrлar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalar uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar

– mazkur ta'lim yo'naliش bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolati doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy talim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

–ta'lim yo'naliشining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baxolashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

–ta'limni boshkarish buyicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

–oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrлar buyurtmachilar va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshka manfaatdor shaxslar.

1.2. 60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tavsisi

1.2.1. 60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining sohalari:

60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'naliش bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruv organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy soxalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

–O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

–umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalarida;

–qishloq va suv xo'jaligi vazirligi idoralardan;

–ishlab chiqarish korxonalarida;

- sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi avtomatlashtirilgan loyihalarni boshqarishda;
- raqamli texnologiyalar va tegishli vazirliklar tizimidagi korxonalarda;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida;
- davlat harbiy sohasi, ichki ishlar organlarida;
- davlat boshqaruvi organlari, o'rta maxsus kasbiy ta'limga davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarini yechishda.

60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, mакtabdan tashqari ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislikka oid fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, axborot texnologiyalaridan foydalaniqidigan barcha tashkilotdarda, dasturchi sifatida "IT-park" rezidenti bo'lishi va firmalarda, davlat va nodavlat muassasalarida axborot texnologiyalari bo'yicha kompleks masalalarini yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- Pedagogik (umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim, mакtabdan tashqari ta'lim tizimida);
- ishlab chiqarish;
- loyihiy -konstrukturlik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot;

1.2.4. 60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari

60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'limga yunalishi buyicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi xamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining soxalari, ob'ektlari va turlariga muvosik bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim, mакtabdan tashqari ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- umumiyo'rta, akademik litseylar, professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalariga oid o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalaniib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiq etish;
- mustaqil ta'lim va kasbiy kreativlik asosida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jahbalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;
- maxsus fanlarni o'qitish uslubiyotini egallash;
- ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya tizimlari ish holatini doimiy nazorat qilib borish, tahlillar o'tkazish va kerakli hollarda ularni ish holatini optimallashtirish tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- axborot ta'lim texnologiyalarni joriy etish, elektron mahsulotlar ishlab chiqarish, dasturlash xizmatini ko'rsatish;
- ishlab chiqarish sohalarida avtomatlashtirilgan tizimlarda operatorlik qilish;

–ishlab chiqarish jarayonida sifatni sinash, texnik nazoratni va boshqaruvini amalga oshirish;

–audio, video va media ta’lim mahsulotlar ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy-muhandislik guruhi ishini tashkil etish, turli fikrlar sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

–ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini ta’minlash;

–ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

–axborot-kommunikatsiya tizimlarining texnik vositalari, qurilmalari, uzatish, saqlash va gayta ishlash tizimlarini yig‘ish va ishga tushirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Loyihaviy -konstrukturlik faoliyatida:

–dasturli kompyuter va avtomatlashirilgan tizimlari vositalari va elektron ta’lim tizimlarini sinash va ekspluatatsiya qilish loyihasini ishlab chiqish;

–bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion imitatsion modellarni ishlab chiqish;

–loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

–amaliyotda axborot ta’lim texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslubiyotlarni, instrumental va dasturiy vositalarini ixtisoslikga mos ravishda ishlab chiqish va qo‘llash;

–maxsus kompyuter dasturlari yordamida elektron ta’limni loyihalash, o‘lchash, nazorat qilish ishlarini amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

–fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol nuqtai nazarga;

–dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

–Vatan tarixini bilish, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

–Xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

–tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

–sohaga oid innovatsiyalarni amaliyatga tadbiq qilishni tashkil etish;

–ta’lim sohasidagi dasturlash va menejment faoliyati olib borish;

–ta’lim sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

–ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

–zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

–fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

–bajarilayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

–pullik ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

–ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

–kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

–ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariiga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- internet tarmog'ida innovatsion ta'lim texnologiyalari yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish va amaliyotda qo'llash;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashishi;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yihish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtiroy etish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. 60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iktisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar moxiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar buyicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi xamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- pedagogik va psixologik madaniyatni oshirish va liderlik, oratorlik ko'nikmalarini shakllantirish;
- mantiqiy fikrflashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni izlash, taxlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- ta'limning barcha shakllarida (an'anaviy, masofaviy va h.k) o'z pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil qilish;
- pedagogik-boshqaruv kompetensiyasiga ega bo'lish asosida jamoaga rahbarlik qilish;
- raqamlı konpetensiyaga ega bo'lish, turli axborot tizimlari bilan ishslash, axborot va ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va ular asosida ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- ijtimoiy media tarmoqlar asosida ta'limni tashkil etish hamda frilanserlik faoliyatini yuritish;

– Pedagogik faoliyatni va fan yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni vitagen ta’limga muvofiq muqobil yechimlarini topish va amaliyotga tadbiq qilish;

– Divergent va konvergent, kreativ va mantiqiy fikrlash asosida mustaqil ishlarni tashkil qilish;

– Sun’iy intellekt tizimlari, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

– Ta’limiy loyihalar, biznes rejalar va ta’lim muassasalariaro shartloyihalar, biznes rejalar va ta’lim muassasalariaro shartnomalarni shakllantirish hamda boshkarish, ijrochilar faoliyatini muvofiklashtirish kunikmalariga ega bulish;

– nazariya va amaliyot borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko’nikmalarni egallashi o’quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o’zlashtirish, amaliyotlarni o’tish hamda boshqa o’quv mashg’ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko’nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqibchuqurlashtirilgan, qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zaru kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar) - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlari va kreditlar

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4620	154
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	360	12
Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14

2.3.2.60611300 – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi ta’lim yo’nalishi o’quv rejasidagi fanlarni quyidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyligi yuklamagan hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4620	154	1-7
1.01	HIST14MBK	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	RELS14MBK	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	PHIL14MBK	Falsafa	120	4	2
1.04	FRLG14MBK	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	CALC18MBK	Hisob(Calculus)	180	6	1

1.06	PHYS16MBK	Fizika	300	10	1,2
1.07	DFEQ14MBK	Differensial tenglamalar	120	4	2
1.08	DSST16MBK	Diskret tuzilmalar	120	4	2
1.09	PROG16MBK	Dasturlash	360	12	1,2
1.10	ACWR12MBK	Akademik yozuv	120	4	1
1.11	DTBS16MBK	Ma'lumotlar bazasi	180	6	3
1.12	CYSF16MBK	Kiberxavfsizlik asoslari	180	6	3
1.13	DTSA16MBK	Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar	180	6	3
1.14	WEBI16MBK	Veb ilova yaratish	180	6	4
1.15	CORG16MBK	Kompyuterni tashkil etish	180	6	3
1.16	CMNT16MBK	Kompyuter tarmoqlari	180	6	4
1.17	FOAI16MBK	Sun'iy intellekt asoslari	180	6	4
1.18	ELEC16MBK	Elektronika va sxemalar	180	6	3
1.19	IEDU16MBK	Ta'limga kirish	180	6	5
1.20	DTED16MBK	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar	120	4	6
1.21	ALGD16MBK	Elektron pedagogika	240	8	5
1.22	LRNT16MBK	O'quv reja, baho va baholash nazariyasi	180	6	7
1.23	PBST16MBK	Ehitimollik va statistika	180	6	4
1.24	OSYS16MBK	Operatsion tizimlar	180	6	5
1.25	INDP12MBK	Individual loyiha	120	4	6
1.26	EMBS16MBK	O'rnatilgan tizimlar	180	6	6
1.27	PHED10MBK	Jismoniy tarbiya*			
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-8
		Jami	6420	214	1-8
		Malakaviy amaliyot (ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlar)	360	12	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	420	14	8
		Jami	780	26	
		Hammasi	7200	240	

Izoh: Jismoniy tarbiya fakultativ fan.

2.4. Kvalifikatsiya Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida muhandis-pedagog



Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yunalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ta'lim shakl, usul, vositalari, ilmiy-o'quv faoliyat, profil, professional kreativlik, pedagogik mahorat, pedagogik texnika, o'qib-o'rganish natijalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv davri menejment, tarmoklar va sohalar, malaka talablari, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshkaruv faoliyati, virtual ta'lim, elektron ta'lim, elektron pedagogika, ommaviy ochiq onlayn kurslar, tarmoq boshqaruvi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, individual loyiha, loyixalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Rektor

prof. B.Maxkamov

2023 yil « 24 » oy



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti

Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil « 06 » oy



A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni
kasbiy rivojlantirish va yangi
metodikalarga o'rnatish milliy-tadqiqot
instituti

Rektor

A.Ismailov

2023 yil « 26 » oy



Pedagogik innovatsiyalar, professional
ta'lim boshqaruv hamda pedagog
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti

prof. Z.Xudayberdiev

25 » oy



M.O.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'lifi yo'nalishi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari
va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"28" 07

2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori B.Maxkamov, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori Sh.Yakubov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.Qirg'izboev, A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining rektori A.Ismailov, Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori Z.Xudayberdiev birgalikda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, qelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'lifi ta'lim
yo'nalishi**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sod farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sod, 2017 yil 27 iyuldag "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sod, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sod, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-sod Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan malaka talablari va o'quv rejani o'natilgan tartibdu tsdisiqqa tuvsiya etish mumkin.

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti rektori, professor**


B. Maxkamov

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika
universiteti rektori, professor**


A. Qirg'izboev

**A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy
tadqiqot instituti rektori**


A. Ismailov

**Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim
boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti direktori,
professor**


Z. Xudayberdiev